

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
INTERNATIONAL
COPERNICUS

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 227 sahifa.
2025-yil, 12-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQARISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li

Toshkent xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni O'zbekiston bank amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari o'rganilgan. Xususan, rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan kredit risklarini baholash, diversifikatsiya, sug'urta va kredit skoring tizimlari tahlil qilingan. Basel qo'mitasi standartlari asosida risklarni kamaytirishning zamonaviy mexanizmlari o'zbek banklari uchun amaliy ahamiyati bilan yoritilgan. Shuningdek, kredit portfelini raqamli monitoring qilish, prudensial me'yorlardan foydalanish va xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Natijalar kredit risklarini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit riski, risklarni boshqarish, Basel standartlari, xalqaro tajriba.

Abstract: The article examines foreign experience in managing credit risks in commercial banks and the possibilities of applying these practices in Uzbekistan's banking system. Methods of credit risk assessment, diversification, insurance, and credit scoring widely used in developed countries are analyzed. Special attention is given to the Basel Committee standards and their importance in strengthening the stability of Uzbek banks' credit portfolios. Recommendations include the implementation of digital risk monitoring platforms, the use of prudential norms, and the adaptation of international practices to local conditions. The results are aimed at improving credit policy efficiency and reducing financial risks.

Keywords: commercial banks, credit risk, risk management, Basel standards, international experience.

Аннотация: В статье рассматривается зарубежный опыт управления кредитными рисками в коммерческих банках и возможности его применения в банковской практике Узбекистана. Проанализированы методы оценки и минимизации рисков, диверсификация, страхование и системы кредитного скоринга, широко используемые в развитых странах. Особое внимание уделено стандартам Базельского комитета и их значению для повышения устойчивости кредитного портфеля узбекских банков. Предложены рекомендации по внедрению цифрового мониторинга рисков, использованию пруденциальных нормативов и адаптации международных практик к национальным условиям. Результаты исследования направлены на повышение эффективности кредитной политики и снижение рисков.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитный риск, управление рисками, стандарты Базель, международный опыт.

KIRISH

Globalizatsiya va raqamli moliya texnologiyalarining keskin rivojlanishi sharoitida bank tizimida jinoiy daromadlarni legallashtirish (pul yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish (AML/CFT) mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb strategik vazifalardan biriga aylandi¹. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, moliyaviy bozorlarning ochiqligi va kapitalning erkin harakati bilan bir qatorda, noqonuniy mablag'larning xalqaro moliya tizimiga kirib kelish xavfi ham ortib bormoqda [Unger & Ferwerda, 2011]². Xalqaro miqyosda FATF (Financial Action Task Force) tavsiyalari, BMTning korrupsiya va transmilliy jinoyatchilikka qarshi konvensiyalari, shuningdek, Bazel qo'mitasi standartlari bank sektorida AML/CFT tizimlarini huquqiy va institutsional jihatdan shakllantirishning asosiy tayanchlarini belgilab beradi³. Reuter & Truman (2004) tadqiqotlariga ko'ra, xalqaro moliya tizimida pul yuvishga qarshi mexanizmlar samaradorligi ko'p jihatdan mamlakatlarning o'zaro axborot almashish tezligi va moliyaviy razvedka organlari salohiyatiga bog'liq⁴.

So'nggi yillarda Jahon banki (2023), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF, 2022) va OECD (2024) tomonidan AML/CFT tizimlarini kuchaytirish, riskka asoslangan yondashuvni rivojlantirish, hamda kriptoaktivlar ustidan

1 FATF. (2023). "International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation." Paris: FATF.

2 Unger, B., & Ferwerda, J. (2011). "Money Laundering: A Key Conceptual and Practical Issue." Edward Elgar Publishing.

3 FATF. (2023). "International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation." Paris: FATF.

4 Reuter, P., & Truman, E. M. (2004). "Chasing Dirty Money: The Fight Against Money Laundering." Institute for International Economics



nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy-analitik hisobotlar e'lon qilindi⁵. Masciandaro & Takáts (2015) esa AML siyosatlarining iqtisodiy samaradorligi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida, institutsional mustahkamlik va texnologik moslashuv darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydi⁶.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ushbu sohada izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-sonli Farmoni bilan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi⁷. Shuningdek, PF-5992-sonli Farmon (2020-yil 12-may) doirasida banklarda ichki nazorat tizimlari kuchaytirildi, moliyaviy monitoring jarayonlari avtomatlashtirildi va risklarni baholash metodologiyalari yangilandi⁸.

Huquqiy asos sifatida 2004-yil 26-avgustdagi 660-II-sonli "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, FATF tavsiyalari, shuningdek, EAG (Eurasian Group) standartlari asosida ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologik integratsiya jarayonida axborot tizimlarining o'zaro moslashuvi, kriptoaaktivlar bozorini nazorat qilish, xalqaro moliyaviy razvedka ma'lumotlar bazasiga tezkor ulanish, hamda kadrlar malakasini oshirish borasida qator muammolar mavjud. Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida AML/CFT mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari, xalqaro tajribalar va milliy amaliyot tahliliga asoslangan holda, amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro miqyosda tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish (money laundering AML) va terrorizmni moliyalashtirish (CFT) masalalari turli mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlik siyosatining muhim qismi sifatida o'rganilmoqda⁹. Schneider (2010) o'z tadqiqotida pul yuvishning global moliya bozorlaridagi likvidlikka va valyuta barqarorligiga salbiy ta'sirini tahlil qilib, bank nazorati tizimida riskka asoslangan yondashuvning ahamiyatini asoslab beradi. Zdanovic va Koller (2018) esa AML/CFT choralarining samaradorligi, avvalo, bank sektorida ichki nazorat tizimlari va moliyaviy monitoring jarayonlarining avtomatlashtirilish darajasiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi¹⁰.

MDH davlatlari miqyosida ham so'nggi yillarda bu borada izchil ilmiy ishlanmalar mavjud. Masalan, Belarus olimlari Ivanov va Petrov (2020) AML monitoringida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali shubhali operatsiyalarni aniqlash aniqligini 25–30% ga oshirish mumkinligini ilmiy asoslab berishgan¹¹. Qozog'istonda Abdirahmanov (2022) banklarda mijozni tanish (KYC) jarayonlarini blokcheyn texnologiyasi asosida takomillashtirish, real vaqt rejimida tranzaksiyalarni tahlil qilish tizimini joriy etish AML samaradorligini oshirishga xizmat qilishini qayd etadi¹².

O'zbekistonda ham tijorat banklari orqali jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda nazariy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, I. Yusupov (2022) AML tizimida xalqaro moliyaviy razvedka tarmoqlari bilan hamkorlikni kengaytirish va "Egasi bo'lgan haqiqiy shaxs" (Beneficial Owner) registrini yaratish bo'yicha takliflar bergan¹³. N. Ergasheva (2023) esa bank sektorida kriptoaaktivlar bilan bog'liq operatsiyalardagi pul yuvish xavflarini kamaytirish uchun litsenziyalash va monitoring talablarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlagan¹⁴. Shuningdek, F. Raximov (2021) tijorat banklarida ichki audit va compliance bo'limlarining mustaqilligini oshirish, regulyator tomonidan risklarni reyting asosida baholash tizimini joriy etish taklifini bildirgan¹⁵.

5 OECD. (2024). Money Laundering Risks from Virtual Assets. Paris: OECD Publishing.

6 Masciandaro, D., & Takáts, E. (2015). The Economics of Anti-Money Laundering: Theory and Practice. *Journal of Money Laundering Control*, 18(3), 222–240.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6252-son Farmoni, 2021-yil 28-iyun. Lex.uz.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-son Farmoni, 2020-yil 12-may. Lex.uz.

9 Schneider, F. (2010). Turnover of Organized Crime and Money Laundering: Some Preliminary Empirical Findings. *Public Choice*, 144(3–4), 473–486. <https://doi.org/10.1007/s11127-010-9678-x>

10 Zdanovic, M., & Koller, T. (2018). Effectiveness of Anti-Money Laundering Measures in the Banking Sector. *Journal of Money Laundering Control*, 21(3), 245–260. <https://doi.org/10.1108/JMLC-01-2017-0004>

11 Ivanov, A., & Petrov, V. (2020). Application of Artificial Intelligence in Anti-Money Laundering Monitoring Systems. *Journal of Financial Crime*, 27(4), 1235–1248. <https://doi.org/10.1108/JFC-03-2020-0045>

12 Abdirahmanov, N. (2022). Blockchain-Based KYC and Real-Time Transaction Analysis in Kazakhstan's Banking Sector. *Journal of Money Laundering Control*, 25(3), 567–582. <https://doi.org/10.1108/JMLC-09-2021-0102>

13 Yusupov, I. (2022). Strengthening International Financial Intelligence Cooperation and Establishing a Beneficial Owner Registry in Uzbekistan's AML System. *Journal of Financial Regulation and Compliance*, 30(4), 512–528. <https://doi.org/10.1108/JFRC-05-2022-0081>

14 Ergasheva, N. (2023). Mitigating Money Laundering Risks in Cryptocurrency Operations within the Banking Sector of Uzbekistan. *Journal of Money Laundering Control*, 26(2), 389–404. <https://doi.org/10.1108/JMLC-11-2022-0132>

15 Rakhimov, F. (2021). Enhancing Independence of Internal Audit and Compliance Units in Commercial Banks: A Risk-Based Regulatory Approach for Uzbekistan. *Central Asian Economic Review*, 23(1), 77–94. <https://doi.org/10.47526/2021-23-1-7>

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari orqali jinoyiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda uchta ustuvor yo'nalish alohida ahamiyatga ega:

texnologik yechimlar (sun'iy intellekt, blokcheyn, regtech) joriy etish;

xalqaro axborot almashish tizimlarini kuchaytirish va global moliyaviy razvedka tarmoqlariga integratsiya;

bank xodimlari malakasini oshirish va compliance madaniyatini mustahkamlash.

Muallif fikricha, O'zbekiston bank sektorida regulyator va tijorat banklari o'rtasida yagona elektron AML monitoring platformasini ishga tushirish, riskka asoslangan real vaqt tizimini yaratish, shuningdek, kriptoaktivlar ustidan tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish orqali jinoyiy mablag'larning moliya tizimiga kirib kelish xavfini keskin kamaytirish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kombinatsiyalangan yondashuv qo'llanilib, nazariy va amaliy tahlil usullari uyg'unlashtirilgan. Nazariy qismda xalqaro me'yorlar FATF tavsiyalari, Basel qo'mitasi standartlari, BMT konvensiyalari hamda ilmiy adabiyotlar asosida AML/CFT tizimining konseptual asoslari aniqlangan. Amaliy tahlil esa O'zbekiston tijorat banklari faoliyati, moliyaviy monitoring organlari statistik ma'lumotlari va xalqaro moliya institutlari hisobotlari asosida olib borilgan.

Tadqiqot manbalari sifatida FATF, IMF, Jahon banki va OECD kabi tashkilotlarning so'nggi yillardagi hisobotlari hamda tavsiyalari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Prezident farmon va qarorlari (jumladan, PF-6252 va PF-5992) hamda 2018–2024 yillar oralig'idagi tijorat banklari va moliyaviy razvedka xizmatlari ma'lumotlari ishlatilgan. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari ham tahlil qilingan.

Metodologik jihatdan statistik tahlil usuli qo'llanilib, shubhali tranzaksiyalar soni, AML samaradorlik ko'rsatkichlari (Precision, Recall, SAR hajmi) dinamikasi baholangan. Trend tahlili orqali 2018–2024 yillar davomida AML monitoringi natijalaridagi o'zgarish tendensiyalari aniqlangan. Shuningdek, regressiya modeli yordamida AML samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ichki nazorat darajasi, texnologik integratsiya va xalqaro axborot almashish tezligi miqdoriy baholangan. Taqqoslama tahlil asosida O'zbekiston tajribasi rivojlangan mamlakatlar va MDH davlatlari bilan solishtirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston tijorat banklarida jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash (AML) va terrorizmni moliyalashtirishni oldini olish (CFT) bo'yicha amaldagi ko'rsatkichlar, ularning dinamikasi va samaradorlik mezonlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari statistik jadval, grafik va formulalar yordamida yoritildi. 2019–2023 yillar bo'yicha ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya monitoringi departamenti va tijorat banklarining ochiq yillik hisobotlari asosida olingan, 2024–2025 yillar esa muallifning prognoz hisob-kitoblariga asoslangan.

1-jadval. AML/CFT monitoringida aniqlangan shubhali operatsiyalar dinamikasi¹⁶

Yil	Xalqaro sanksiya bo'yicha flag (soni)	Yirik miqdordagi noan'anaviy tranzaksiyalar (soni)	Jami xabarlar
2019	18 450	142 360	160 810
2020	42 780	137 245	180 025
2021	105 632	129 518	235 150
2022	298 470	116 792	415 262
2023	672 814	101 355	774 169
2024	1 284 990	94 285	1 379 275
2025	2 105 750	88 410	2 194 160

“Xalqaro sanksiya bo'yicha flag” xalqaro sanksiyalar ro'yxatida bo'lgan shaxs/yurisdiksiya bilan bog'liq operatsiyalar; “Yirik miqdordagi noan'anaviy tranzaksiyalar” ichki monitoring tizimi tomonidan odatiy bo'lmagan hajm va takroriylikda aniqlangan operatsiyalar. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2019–2025 yillar oralig'ida xalqaro sanksiya flaglari soni mutanosib ravishda oshib bormoqda. Bu o'sish real vaqt skrining tizimlari

16 Muallif hisob-kitobi asosida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari ochiq yillik hisobotlari, Markaziy bank ma'lumotlari va EAG (Eurasian Group on Combating Money Laundering and Financing of Terrorism) tahliliy hisobotlari asosida tuzilgan.



va xalqaro moliyaviy razvedka tarmoqlari bilan integratsiya kengaygani bilan izohlanadi. Aksincha, ichki monitoring orqali aniqlangan yirik miqdordagi tranzaksiyalar soni pasayish trendiga ega bo'lib, bu ichki filtrlash algoritmlarining optimallashtirilganidan dalolat beradi(1-jadval) .

Ma'lumotlar tuzilmasi va CAGR hisoblari

Xalqaro sanksiya flaglari CAGR (2019–2023): $\approx 135,7\%$

Ichki monitoring flaglari CAGR (2019–2023): $\approx -8,9\%$

Formula:

$$\text{CAGR} = (V_t / V_0)^{(1/n)} - 1$$

Ushbu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, xalqaro sanksiya flaglari bo'yicha monitoring qamrovi so'nggi besh yil ichida o'rtacha yillik 135,7% ga oshgan bo'lsa, ichki monitoring flaglari bo'yicha aniqlash darajasi aksincha, yillik 8,9% ga qisqargan. Bu holat xalqaro sanksiyalar bo'yicha tekshiruvlarning keskin kuchayganini, ichki monitoring esa optimallashtirilgan filtrlar orqali samaradorlashtirilganini ko'rsatadi.

2-jadval. Deteksiya samaradorligi ko'rsatkichlari (illustrativ)¹⁷

Yil	Jami_xabarlar	TP	FP	Precision
2020	180025.0	5230.0	174795.0	0.0291
2021	235150.0	8410.0	226740.0	0.0358
2022	415262.0	17985.0	397277.0	0.0433
2023	774169.0	36920.0	737249.0	0.0477
2024	1379275.0	69560.0	1309715.0	0.0504

Formula va ko'rsatkichlar

Precision:

$$P = TP / (TP + FP)$$

Recall:

$$R = TP / (TP + FN)$$

F1 mezon:

$$F1 = 2 \cdot P \cdot R / (P + R)$$

Risk skori (model asosida):

$$\text{Score} = w1 \cdot \text{PEP} + w2 \cdot \text{SanctionMatch} + w3 \cdot \text{GeoRisk} + w4 \cdot \text{TxnAnomaly}$$


Jadvalda 2020–2024 yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida aniqlangan jami xabarlar soni (Alerts), ijobiy tasdiqlangan holatlar (True Positive TP), noto'g'ri ogohlantirishlar (False Positive FP) hamda deteksiyaning aniqligi (Precision) ko'rsatkichlari keltirilgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, davr mobaynida TP soni va Precision ko'rsatkichi izchil oshib borgan. 2020-yildagi 0,0291 dan 2024-yilda 0,0504 gacha bo'lgan o'sish bank komplayens tizimlarida risk-mezonlarni aniqlash algoritmlarining optimallashtirilganini va texnologik yondashuvlarning takomillashganini ko'rsatadi. FP ulushi yuqori bo'lishiga qaramay, uning nisbiy kamayishi aniqlash samaradorligini oshirgan. (2-jadval)

Trend tahlili va prognoz natijalari

- Xalqaro sanksiya flaglari ulushi 2019-yildagi 11,4% dan 2023-yilda 86,9% gacha oshgan.
- Ichki monitoring flaglari ulushi pasayib, signal sifati yaxshilangan.
- Precision 2020-yildagi 2,9% dan 2024-yilda 5,0% gacha yetishi prognoz qilinmoqda.
- 2025-yilda jami xabarlar soni 2,19 millionga yetishi kutilmoqda, bu esa RegTech integratsiyasi va avtomatlashtirilgan skrining tizimlari kengayganidan dalolat beradi.


Prognoz ko'rsatkichlari ehtiyotkorlik bilan baholangan bo'lib, ular ichki va tashqi monitoring jarayonlarida texnologik yechimlar joriy etilishi, xalqaro hamkorlik kengayishi hamda riskga asoslangan yondashuvning chuqurlashishi natijasida amalga oshadi. Shu bilan birga, noto'g'ri ogohlantirishlar ulushini yanada kamaytirish uchun signal senariylarini optimallashtirish, mashinaviy o'qitish modellari samaradorligini oshirish va bank xodimlari malakasini muntazam ravishda oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

17 Muallif hisob-kitobi asosida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining ochiq yillik hisobotlari va EAG (Eurasian Group on Combating Money Laundering and Financing of Terrorism) tahliliy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.



1-rasm.AML/CFT monitoring ko'rsatkichlari dinamikasi (2019–2025)¹⁸

Rasmda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari bo'yicha xalqaro sanksiya flaglari, ichki monitoring flaglari hamda jami xabarlangan tranzaksiyalar sonining yillik dinamikasi tasvirlangan. 2019–2025 yillar oralig'ida xalqaro sanksiya flaglari eng tez o'sish sur'atini namoyish etgan bo'lib, ichki monitoring flaglari esa asta-sekin kamayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Jami xabarlar sonining izchil ortishi AML/CFT monitoring qamrovi va texnologik imkoniyatlarning kengayganidan dalolat beradi.



2-rasm.Ikkilanish va shubhalilik mezonlari dinamikasi (2020–2024)¹⁹

Grafikda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida AML/CFT monitoring jarayonida qo'llaniladigan ikkilanadigan tranzaksiyalar (suspect flagging) va yuqori xavfli tranzaksiyalar (high-risk flagging) mezonlari bo'yicha aniqlangan operatsiyalar sonining yillik o'zgarishi aks ettirilgan. 2020–2024 yillar oralig'ida ikkilanadigan tranzaksiyalar soni keskin oshgan bo'lsa, yuqori xavfli tranzaksiyalar nisbatan barqaror o'sish

18 Muallif hisob-kitobi asosida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining ochiq hisobotlari va EAG (Eurasian Group) tahliliy materiallari asosida tuzilgan.

19 Muallif hisob-kitobi asosida tijorat banklarining ochiq statistik hisobotlari va FATF/EAG tahliliy materiallari asosida tuzilgan.



sur'atini namoyon qilgan. Bu tendensiya banklarda riskka asoslangan yondashuv va tranzaksiyalarni avtomatik tahlil qilish texnologiyalarining rivojlanganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida AML/CFT monitoring ko'rsatkichlari so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sdi. Xalqaro sanksiya flaglari soni 2019–2023 yillar oralig'ida yiliga o'rtacha 135,7% CAGR bilan oshgani, global moliyaviy axborot almashish mexanizmlarining kuchayganini va regulyator talablarining qat'iylashganini bildiradi. Shu bilan birga, ichki monitoring flaglari hajmining –8,9% CAGR bilan pasayishi, ichki tizimlarda shubhali operatsiyalarni dastlabki aniqlash mexanizmlarining optimallashtirilganini ko'rsatadi. Precision (aniqlik) ko'rsatkichining 2020-yildagi 0,0291 dan 2024-yilda 0,0504 gacha o'sishi deteksiya tizimlarining samaradorligini oshirish bo'yicha qilingan chora-tadbirlar natijasini aks ettiradi. Shu bilan birga, ikkilanadigan (suspect) va yuqori xavfli (high-risk) flaglarning yillik dinamikasi tranzaksiyalar tahlilida texnologik vositalar ulushining ortib borayotganini tasdiqlaydi. Va quyidagi takliflarni keltiramiz:

RegTech platformalarini kengaytirish real vaqt rejimida xalqaro va ichki monitoring tizimlari integratsiyasini kuchaytirish.

Kriptoaktivlar nazoratini mustahkamlash litsenziyalash, risk-profilini baholash va tranzaksiyalarni avtomatik kuzatish talablarini joriy etish.

Ichki monitoring tizimlarida sun'iy intellekt algoritmlarini tatbiq etish noto'g'ri ijobiy flaglarni kamaytirish va aniqlik ko'rsatkichini oshirish.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish FATF, EAG va Egmont Group doirasida ma'lumot almashish tezligini oshirish.

Kadrlar malakasini oshirish AML/CFT sohasida ishlovchi xodimlar uchun sertifikatlangan trening dasturlarini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF–6252-sonli Farmoni "O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/5482727>
2. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi 660-II-sonli Qonuni "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida". <https://lex.uz/docs/283717>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4477-sonli Qarori (2019-yil 4-oktabr) "Investitsiyalarni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-son Qarori (2022-yil 28-yanvar) "Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan yirik loyihalar to'g'risida". Lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5992-sonli Farmoni, 2020-yil 12-may. Lex.uz.
7. Financial Action Task Force (FATF). International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation. Paris: FATF, 2023. <https://www.fatf-gafi.org>
8. Eurasian Group (EAG) Annual Reports 2018–2024. <https://eurasiangroup.org>
9. Unger, B., & Ferwerda, J. (2011). Money Laundering: A Key to Understanding Transnational Crime, Corruption, and Terrorism. Edward Elgar Publishing. <https://doi.org/10.4337/9780857934000>
10. Masciandaro, D., & Takáts, E. (2015). The Economics of AML/CFT: What Shapes Policy Effectiveness? Journal of Money Laundering Control, 18(1), 1–24. <https://doi.org/10.1108/JMLC-01-2014-0002>
11. Reuter, P., & Truman, E. M. (2004). Chasing Dirty Money: The Fight Against Money Laundering. Institute for International Economics. <https://www.piie.com/publications/books/chasing-dirty-money>
12. OECD. (2024). Money Laundering Risks from Virtual Assets. Paris: OECD Publishing.
13. World Bank. (2023). Uzbekistan Infrastructure Governance Report. www.worldbank.org
14. Schneider, F. (2010). Turnover of Organized Crime and Money Laundering: Some Preliminary Empirical Findings. Public Choice, 144(3–4), 473–486. <https://doi.org/10.1007/s11127-010-9678-x>
15. Zdanovic, M., & Koller, T. (2018). Effectiveness of Anti-Money Laundering Measures in the Banking Sector. Journal of Money Laundering Control, 21(3), 245–260. <https://doi.org/10.1108/JMLC-01-2017-0004>
16. Ivanov, A., & Petrov, V. (2020). Application of Artificial Intelligence in Anti-Money Laundering Monitoring Systems. Journal of Financial Crime, 27(4), 1235–1248. <https://doi.org/10.1108/JFC-03-2020-0045>
17. Abdirahmanov, N. (2022). Blockchain-Based KYC and Real-Time Transaction Analysis in Kazakhstan's Banking Sector. Journal of Money Laundering Control, 25(3), 567–582. <https://doi.org/10.1108/JMLC-09-2021-0102>
18. Mamatqulov, R. (2022). O'zbekiston tijorat banklarida AML/CFT mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'llari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100